

## UMUMIY O’RTA TA’LIM VA KASB-HUNAR MAKTABLARIDA O’QUVCHILARNI TARBIYALASH KOMPETENTLIGI

**Ismoilov To‘chi Jabborovich**

*A.Qodiriy nomidagi JDPU dotsenti, p.f.n, Oliy ta’lim a’lochisi ko’krak nishoni lauriati, Jizzax shahri, O’zbekiston  
e-mail: ismoilovtuychi@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada bo’lajak o’qituvchilarining umumiy o’rta ta’lim va kasb-hunar maktablarida o’quvchilarni tarbiyalash kompetentligi rivojlantirishda o’quvchilarni tarbiyalashning maqsad va vazifalari, tarbiyalash metodlari, tarbiyalashga qo’yiladigan talablar kabi ma’lumotlar bayon qilingan.

**Kalit so’zlar:** Ta’lim, muassasa, tarbiya, tizim, shaxs, shart-sharoit, hamkorlik, pedagogika, munosabat, kishi, bilim, faol, faoliyat, tajriba, uzlucksiz, yaxlit, ma’naviyat, kasb mustaqillik, ijod, kasbiy tayyorgarlik.

**Аннотация:** В статье сформулированы такие данные, как цели и задачи воспитания учащихся, методы воспитания, требования к воспитанию при развитии компетентности будущих педагогов в общеобразовательных и профессиональных школах.

**Ключевые слова:** Образование, учреждение, воспитание, система, личность, условия, сотрудничество, педагогика, отношение, Человек, знания, деятель, деятельность, опыт, непрерывность, целостность, духовность, профессия самостоятельность, творчество, профессиональная подготовка.

**Annotation:** The article formulates data such as the goals and objectives of student education, methods of education, and requirements for education in the development of competence of future teachers in general and vocational schools.

**Keywords:** Education, institution, upbringing, system, personality, conditions, cooperation, pedagogy, attitude, Person, knowledge, activist, activity, experience, continuity, integrity, spirituality, profession independence, creativity, professional training.

Ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy tizimning konseptual g’oyasi – shaxs rivojlanishini maqsadga yo’naltirilgan holda boshqarishga e’tibor qaratish uchun, ularga yaxshi shart-sharoitlar yaratilishi va avtoritorizmdan voz kechilishi zarurligi dolzarb masaladir. Bizning nazаримизда, bunda hamkorlik pedagogikasi juda qo’ll keladi. Hamkorlik pedagogikasining mazmuni o’quvchi-yoshlarning o’z kuchiga ishonishini ifodalovchi munosabatlar yordamida unga tanlash erkinligini berishda namoyon bo’ladi. Tarbiya - tarbiyachi va tarbiyalanuvchi faoliyatlarini o’z ichiga olgan ikki yoqlama jarayon. Tarbiyachilar bilan va tarbiyaga ega bo’lgan kishilar

tarbiyalanuvchilar bilim va tajriba o‘rganuvchi yoshlardir. Ammo tarbiyalanuvchilar muayyon darajada aktiv faoliyat ko‘rsatmasalar tajriba va bilim o‘rgana olmaydilar.

Tarbiya jarayonini ko‘p qirrali, uzlusiz, ikki tomonlama aloqa, yaxlit tizimli, uzoq muddatli, qarama-qarshiliklardan iborat jarayonlarga bo‘lish mumkin.

Tarbiya vazifalarini belgilashda quyidagilarga e’tibor qaratilishi kerak:

1) o‘z vatanining fuqarosini tarbiyalash;

2) shaxsning ma’naviyatini shakllantirish;

3) mehnatkash insonni iqtisodiy tafakkurini tarbiyalash, mehnatga, kasbga hurmat va ijtimoiy-psixologik jihatdan yoshlarda mustaqillik, ijod, ishchanlik, faollik, yuqori kasbiy tayyorgarlik sifatlarini kuchaytirish;

4) ruhiy-jismoniy sog‘lomlikni tarbiyalash;

5) insonning tabiat bilan munosabatini uyg‘unlashtirish;

6) shaxsda induviduallik va jamoviylikni tarbiyalash.

Tarbiya tamoyillar tizimi:

- tarbiyaning ijtimoiy yo‘nalganligi;

- tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog‘liqligi;

- tarbiyada ijobiy jihatlarga tayanish;

- tarbiyani insonparvarlashtirish;

- shaxsiy yondashish;

- tarbiyaviy ta’sirning umumiyligi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- o‘quvchilarining qiziqlishi - xohishiga qarab ta’lim muassasasi va undan tashqarida tashkil etilgan turli xil uyushmalarga jalb etish;

- o‘quvchilar ishtirokida muntazam ravishda har xil ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish;

- fan to‘garaklar, texnik yo‘nalishdagi to‘garaklar va amaliy ijodkorlik mazmunini o‘zgartirish;

- badiiy-estetik birlashmalarni tashkil etish va rivojlantirish;

- huquqiy ta’lim va tarbiyaviy takomillashtirish;

- ommaviy sport, harbiy vatanparvarlik ishlarini rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzi malakasini shakllantirish;

- ta’lim muassasasi faoliyatini demokratlashtirish asosi sifatida o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirish.

O‘quv-tarbiyaviy jarayonida yuritiladigan asosiy hujjatlardan biri bu o‘quvchilarining psixologik pasporti - tavsifnama. Ta’lim muassasasida har bir

o‘quvchining psixologik pasporti bo‘lishi lozim. Uni muntazam ravishda to‘ldirilib borilishi tarbiya jarayonida ishtirok etuvchi har qanday shaxs (ma’naviyat-ma’rifat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, sinf rahbari, muhandis-pedagog, tarbiyachi o‘qituvchi)ning refleksiv madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Pasport tavsifnomada qayd etiladigan ma’lumotlar uchta manba orqali kuzatish va o‘quvchilar bilan suhbatlashish hujjati (shaxsiy varaqalar, tibbiyot ko‘rigi, kartochkalar, jurnallar va boshqalar) bilan test savollari treninglar o‘tkazish orqali olinadi. YUNESKO ning «Yangi ming yillikda» nomli ma’ruzasida esa ta’lim-tarbiya vazifasi quyidagicha tavsiflangan:

- o‘qishga o‘rgatish;
- yashashga o‘rgatish;
- birgalikda yashashga o‘rgatish;
- mehnat qilishga va mablag‘ topishga o‘rgatish.

Ta’lim-tarbiya metodlarini turkumlash:

1. O‘quv axborotini o‘zlashtirish manbaiga ko‘ra:
  - a) og‘zaki (so‘zlab berish, savol-javob, suhbat, ma’ruza, tushuntirish, bayon etish kabilalar);
  - b) ko‘rsatmali (ko‘rsatmali bayon etish, tushuntirish);
  - v) amaliy (tajriba sinovlari);
2. Axborotni uzatilishi va o‘zlashtirish mantiqiga ko‘ra:
  - a) oddiydan murakkabga (induktiv);
  - b) murakkabdan oddiyga yoki mavhumdan ma’lumga (deduktiv);
3. O‘rganuvchilarning mustaqil tafakkuri darajasiga ko‘ra:
  - a) mahsulsiz (reproduktiv);
  - b) mahsullik (produktiv);
4. O‘quv ishlarni bajarilish darajasiga ko‘ra:
  - a) tahsil beruvchi rahbarligidagi ta’lim-tarbiyaviy ishlari;
  - b) tahsil beruvchi rahbarlisiz tahsil oluvchilarning mustaqil ishlari (manbalar bilan ishslash, yozma ishlari, laboratoriya ishlari, mehnat vazifalarini bajarish va shu kabilar).
5. Tahsil oluvchilarning o‘qib o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish bo‘yicha:
  - a) bilish o‘yinlari;
  - b) o‘quv munozaralari;
  - v) qiziqarli amaliy vaziyatlarni yuzaga keltirish;
6. Javobgarlik burchini shakllantirish va rag‘batlantirish usuliga ko‘ra:
  - a) ishontirish;

- b) talab qo‘yish;
  - v) qo‘yilgan talabga muvofiq mashq qildirish;
  - g) rag‘batlantirish va jazolash;
7. Nazorat qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish usuliga ko‘ra:
- a) yakka holda so‘rash;
  - b) yoppasiga (yalpi) so‘rash;
  - v) og‘zaki va yozma sinov yoki imtihon;
  - g) dasturli so‘rov (testlar yordamida mashinali yoki mashinasiz);
  - d) o‘z-o‘zini nazorat qilish va shu kabilar.

O‘quvchilarni tarbiyalash shakllari:

1. Dars.
2. Amaliy mashg‘ulotlar.
3. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar.
4. Sayohat (ekskurtsiya).
5. O‘quvchilar bilan qo‘srimcha ishlash.
6. O‘quvchilarning uy ishlari.
7. O‘quv sexlari va maydonlarida ta’lim berish.
8. Ustoz-shogird tarkibida ta’lim berish.
9. Xususiy (shaxsiy) ish o‘rinlarida o‘quvchilarni o‘rgatish.
10. Korxonadagi ishchilar o‘rnida ishlab chiqarish amaliyoti kabilar.

Xulosa o‘rnida, bo‘lajak o‘qituvchilar umumiyligi o‘rtalama ta’lim va kasb-hunar maktablarida o‘quvchilarni tarbiyalashning maqsad va vazifalarini, tarbiyalash metodlarini, tarbiyalashga qo‘yiladigan talablarni puxta o‘zlashtirish bilan bir qatorda, o‘quvchilarni o‘rganish, nazorat qilish va xolisona baholashning pedagogik-psixologik metodlarini bilish va ulardan samarali foydalanish tavsiya etiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Aslanova D.X., Salamov F.F., Xalikov Y.M. Kasbiy kompetentlik. O‘quv qo‘llanma. Samarqand: Iqtisodiyot, 2020 yil, 86 bet.
2. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. - "Fan va texnologiya" nashriyoti, T.: 2013-y.
3. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To‘rayev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. "Sano-standart" 2015-y.
4. Ismoilov T.J. Texnologiya fani o‘qituvchisining sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishdagi kasbiy kompetentligi, Fizika va texnologik ta’lim jurnali 2021 №3. 65-73 betlar.
5. YUNESKO ning «Yangi ming yillikda» nomli ma’ruzasi. 1999 y.